

**XOTIRANING BOLALARDA RIVOJLANISHI
PSIXODIAGNOSTIKASI**

*Shahrisabz davlat Pedagogika instituti pedagogika
fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-24 guruh
talabasi Xudoyqulova Gulafza Iskandar qizi*

Annontatsiya: Ushbu maqolada bolalardagi xotira rivojlanishini va uning psixodiagnostikasini tahlil qiladi. Xotira inson psixikasining muhim komponenti bo'lib uning rivojlanishi yoshga, atrof-muhit ta'siriga va psixologik faktorlar bilan chambarchas bog'liq. Maqolada bolalarni xotirasining rivojlanish bosqichlari va xotirani baholashda qo'llaniladigan psixodiagnostik metodlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Xotira, xotiraning rivojlanishi, xotira turlari, xotira jarayonlari, assotsatsiyalar, bolalarda xotira muammolari.

Аннотация: Объявление об аннотации развития памяти детей анализирует развитие компонент психикулярного компонента человека, в зависимости от возраста, влияния на окружающую среду и психологические факторы. В статье будут рассмотрены этапы этапов разработки и психиатрических методов, используемых при оценке памяти.

Ключевые слова: Память, типы памяти, процессы памяти, ассоциации, проблемы с памятью у детей.

Anontation: In this article, the memory development of children is analyzed and its psychodiagnosis. Memory is an important component of human psychiathmic component, depending on age, influence on the environment and psychological factors. The article will consider psychiago techniques of children.

Keywords: Memory, memory tupes, memory processes, associations, memory problems in children.



Xotira- bu tajribamizga aloqador har qanday ma'lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushurish va unutish bilan bog'liq murakkab jarayondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma'lumotlarning ongimizdagi aksidir.

Tevarak-atrofdagi biz idrok qilgan narsa va hodisalar ongimizda izziz yo'qolib ketmaydi, balki miya po'stlog'ida obrazlar tarzida saqlanib qoladi. Keyinchalik narsa va hodisalarning o'zi ko'z oldimizda bo'lmagan paytda ham biz bu obrazlarni ongimizda qayta tiklay olamiz.

Odatda biz biror-bir ma'lumotni o'qiydigan bo'lsak, uni hech bir o'zgarishsiz eslab qolishga harakat qilamiz. Lekin alablanarlisi shundaki, brogan sari ma'lumot ma'lum o'zgarishlarga yuz tutib, xotirada dastlabki paytdagisiday boshqacharoq bo'lib sanaladi. Ba'zi bir ma'lumotlar xohlasak ham xotiradan o'chmaydi, boshqasini esa juda qattiq xoxlasak ham kerak paytda yodimizga tushira olmaymiz. Ma'lum bo'lishicha inson miyyasi har qanday ma'lumotni saqlab qoladi.

Agar shu ma'lumot insonga biror sabab bilan odamga kerak bo'lmasa yoki o'zgarmasa, u ongida tabbiy tarzda yo'qoladi, lekin har doim bizning prafisseonal faolyatimiz manfaatlariga mos ma'lumotlarni esda saqlash juda zarur va shuning uchun ham ko'pchilik ataylab xotira tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Inson xotirasining yaxshi bo'lishi, ya'ni his-kechinmalarimiz, ko'rgan-kechirganlarimizning mazmuni to'laroq miyyamizda saqlab qolishimiz ma'lumotlarni takroran o'qib turishga bog'liq.

Xotira bundan tashqari o'tmishda nimaiki sodir bo'lgan bo'lsa uni esda saqlab qolish hisoblanadi. Inson xotirasining yaxshi bo'lishi, ya'ni his kechinmalarimiz, ko'rgan-kechirganlarimizning mazmuni to'laroq miyamizda saqlanishi quydagi omillarga bog'liq.

-esda saqlab qolish bilan bog'liq harakatlarning yakunlanganlik darajasiga;

-shaxsning uzi shug'ullanayotgan ishga nechog'lik qiziqish bildirayotganini va shu ishga moyilligiga;



-shaxsning bevosita faolyat mazmuni va ahamyatiga munosabatining qandayligiga;

-shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga;

-irodaviy kuchli va intilishlariga;

Tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar ta'sir ko'rsatishi tufayli miyaga keluvchi qo'zg'alishlar miyyada izlar qoldiradi, bu izlar uzoq yillar (ba'zan butun hayot) davomida saqlanib qoladi. Yarimsharlar po'stlog'ida qo'zg'alishlar go'yo yo'l ochiladi, buning natijasida nerv bog'lanishlari keyinchalik oson va tez vujudga keladi. Agar qo'zg'alishlar takrorlanib tursa nerv bog'lanishlari saqlanadi va jonlanadi, aksincha qo'zg'alishlar takrorlanmasa nerv bog'lanishlari so'nadi. Nerv bog'lanishlari so'nsa ilgari esda qoldirilgan ma'lumotlar unutiladi. Vaqtincha nerv bog'lanishlarning vujudga kelishi va saqlanishi xotiraning fiziologik asosini tashkil etadi. Xotiraning mohiyati narsa va hodisalar o'rtasida aloqa o'rnatishdan iborat ekanligini qadim zamonlardananoq greklar tushunib yetdan edilar. Bunday aloqalar assotsatsiyalardeb ataladi. Asotssatsiyalar uch xil bo'ladi.

IZDOSHLIK-(yoki ketma-ketlik) assotsatsiyasi, masalan; biror hodisa esga keltirilgan paytda, shu davrda yuz bergan boshqa fikrlar ham xotirada gavdalanadi.

KONSTRASITLIK-shovqun-suronli shaharga kelib qolsam tinch qishloq hayotini eslayman.

O'XSHASHLIK-tanishimni portretini ko'rsam uni o'zini ham eslayman.

Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarning ongimizda qayta gavdalanishiga tasavvur deb ataladi. Tasavvurlar tufayli ayni paytda ko'z o'ngimizda bo'lmagan lekin ilgari idrok qilgan narsalarni aks ettira oladimiz. Xotira turlari- o'zlashtirish va esda saqlash xususiyatlariga ko'ra xotira bir necha turlarga ajralgan. Masalan: biror bir sayohatni eslaydigan bo'lsak bu-“Obrazli xotira” hisoblanadi. Bunda birinchi signal sistema katta o'rin tutadi. Mana shu sayohatda do'stlar bilan muloqotda bo'lish va fikr almashish orqali bolalar o'rtasida “So'z-mantiq” xotirasidan foydalanadi. Bu signal ikkala sistemasining signal sistemi dominantlik(ustunlik, yetakchilik) qiladi. Bundan tashqari biror



yomon voqeani eslab qolishgan bo'lsalar bu- his-tuyg'ular bilan bog'liq xotira turi va harakatlar bilan aloqador motor yoki harakat xotirasi ham mavjud hisoblanadi. XOTIRA JARAYONLARiga quydagilar kiradi.

- a) esda olib qolish;
- b) o'zlashtirilgan ma'lumotlarni esda saqlash;
- d) esda tushurish va tanish;
- e) unutish.

Esda olib qolish va uni turlari- xotira jarayonlari esda olib qolishdan, ya'ni narsa va hodisalar o'rtasida aloqa o'rnatishdan iboratdir. Esda olib qolish bosh miya po'stlogidagi turli murakkab assotsatsiyalar bilan bog'liq. Xotiramizda nimaiki saqlanib qolayotgan bo'lsa, shularning hammasi "Ixtiyorsiz" saqlanib qoladi. Ko'pincha beixtiyor idrok qilingan narsa esda saqlanib qoladi.

Esda saqlab turish- biz nimani esda olib qo'ygan bo'lsak, shundan nisbatan ozroq qismigina xotirada uzoq vaqt davomida, ba'zan bir umrga saqlanib qoladi. O'zlashtirilgan ma'lumotlar mustahkamlanmasligi tufayli asta-sekin unutilib boradi. Shu sababli o'zlashtirilgan ma'lumotlarni esda saqlab qolish uchun usha ma'lumotlarni takrorlab turish kerak.

Esda tushurish va uning turlari-esga tushurish odatda tanishdan boshlanadi. Tanish bu ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni qayta idrok qilishda esga tushurishdir. Esda tushurish ya'ni eslash narsalarning o'zini shu paytda idrok qilmay turib esga olishdir. Esda tushurish jarayonitanish jarayoni bilan uzviy bog'liq. Esda tushurish ham ixtiyoriy ham ixtiyorsiz bo'lishi mumkin. Ixtiyorsiz esga tushurish deganda, biz oldimizga ma'lum bir maqsad qo'ymasdan va irodaviy kuch sarf qilmasdan esga tushurishni tushunamiz. Bundan esga tushurishni tushunamiz. Bunday esga tushurish jarayoni yuqorida ko'rib o'tilgan assotsatsiyalar ishtirokida sodir bo'ladi. Ixtiyoriy esga tushurish deganda biz biron maqsad bilan esga olish kerak bo'lgan ma'lumotlarni tanlab, harakat qilib, maxsus ravishta esga tushurishni tushunamiz. Ixtiyoriy esga tushurish bilib, anglab esga tushurishdir. Xotira jarayonlarining biriga unutish ham kiradi. Unutish batamom va qisqa unutish kabi turlarga bo'linadi. Unutishning bir qancha



sabablari mavjud. Birinchidan, unutish esda olib qolgan ma'lumotlarning amalda tatbiq qilinishiyoki qilinmasligiga bog'liqdir. Ikkinchidan, unutish esda olib qolingan ma'lumotga nisbatan qiziqishning naqadar barqarorligiga bog'liqdir. Masalan, bizni nihoyatda qiziqtirgan biron kitobning mazmuni biron kinoning mazmuni yoki juda yoqqan biror kuyning ohangi hech qachon esdan chiqmaydi. Nihoyat, uchinchidan unutish ma'lum darajada nerv sistemalarning aholiga ham bog'liqdir.

Xotira sifatlari xotirani qo'llash va muayyan vaqt ichida odam esda tushurishning aniqligiga, esda olib qolish tezligiga, o'zlashtirilgan ma'lumotning qanchalik uzoq esda saqlanishi, xotiraning tayyorligi, ya'ni talab etilgan narsani tezda esga tushira olish qobiliyati nazarda tutiladi. Xotiraning ana shu odamning xotirasi yaxshi xotira hisoblanadi. Xotira xususiyatlari shaxsiy fazilat sifatida odam qobiliyatlarining rivojlanishiga, faolyatiga ta'sir ko'rsatadi. Narsalarni osson esda saqlab qoluvchi kishiga qaraganda, xotirasi u qadar yaxshi rivojlanmagan odamning vaqti ham, kuch ham ko'p sarf bo'ladi. Ko'pgina kasb-hunarlar uchun yaxshi xotira bo'ladi va eng uzoq vaqt saqlanib qoladigan xotira bu kasbiy xotira hisoblanadi. Esda olib qolish va qayta esga tushurish tasavvur obrazlari asosida amalga oshiriladi. Odatda mazmun jihatdan ikki xil tasavvur ya'ni xotira tasavvuri va xayoliy tasavvur farqlanadi. Xotira tasavvuri ilgari idrok qilingan, ya'ni ilgari o'z shaxsiy tajribalarimizda bo'lib o'tgan, lekin hozir ko'z o'ngimizda bo'lmagan narsalarning obrazlarini ongimizda gavdalantirishdan iborat. Xayoliy tasavvur xotira tasavvurga qaraganda murakkab bo'lib, ongimizdagi bilimlarimiz, tajribamiz asosida ilgari idrok qilinmagan, shu paytgacha turmush tajribamizga uchratmagan narsalarning obrazlarini yaratishdan iborat. Xayoliy tasavvur ijod qilish jaryoni bilan bog'liqbo'lgan tasavvurdir. Masalan, matndagi obrazlarning tasvirlanishdagi qarab, ular obrazlarining ko'z oldimizda paydo bo'lishi xayoliy tasavvurga misol bo'ladi.

Tasavvurlar narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish orqali hosil bo'lishidan tashqari so'zlar orqali ham hosil bo'lishi mumkin. Tasavvurlar narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish orqali hosil bo'lishdan tashqari so'zlar orqali



ya'ni so'z bilan biror narsani tasvirlab berish orqali ham hosil bo'lishi mumkin. Tasavvur obrazlarning to'la va ravshan bo'lishi birinchi navbatda idrokning chuqur va to'laligiga bog'liqdir. Unchalik e'tibor bermay pala-partish idrok qilgan narsalardan hosil bo'lgan xotira juda xira bo'ladi. Xotira shunday narsaki u takrorlanib turilsa esda uzoq vaqt saqlanadi. Xotira tushunchasi haqida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, u insonni uzoq vaqtgi o'tmishini chuqur izi hisoblanadi. U bolalarda va kattalarga turlicha jarayon hisoblanadi. Xotira – bu insonning o'rganish, tajriba orttirishi va dunyo haqidagi bilimlarini saqlash imkoniyatidir. Xotira faqatgina o'tgan voqealrni eslab qolishgina emas, balki ular orqali kelajakda to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradigan bir vosita ham deb o'ylayman. Insonning xotirasi- aql va hissiyotlar orasidagi ko'prik, chunki xotira nafaqat ma'lumotlarni saqlash, balki ular bilan bog'liq hissiyotlarni ham eslab qolishga imkon beradi.

Xotira insonning shaxsiyatini shakllantiruvchi eng asosiy omillardan biri. Har bir ealab qolinga voqea, har bir tajriba bizning kimligimizni va dunyoqarashimizni belgilaydi. Bu anglash esa xotiraga qanday e'tibor berishimiz va uning rivojlanishiga qanday yordam berishimiz haqida muhim fikrlar keltiradi. Xotira insonning o'rganilgan bilim va tajribalarni saqlash, qayta tiklash va ulardan foydalangan holda yangi ma'lumotlarni qabul qilish qonilyati bo'lib, u ijtimoiy holatlar, hissiyotlar, emotsiyalar, ma'daniy ta'sirlar, shuningdek miyanning fiziologik holati bilan chambarchas bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zayniddin Murodov «Psixologiya» o'quv qo'llanma, Tosh_2019
2. Tursunali Ismoilov «Pedagogika Psihologiya asoslari» nashriyot Tosh 2017
3. Bahodir Rahimov «Ijtimoiy psixologiya» nazariya qo'llanma Tosh_2018
4. Shuhrat Usmonov «Psixologik maslahatlar va terapiya» O'quv qo'l 2019
5. Abdurahmon Mo'minov «Psixologiyaning asoslari» tosh-2017 qo'llanma
6. Mirzo Ulug'bek «Psixologiya va uning asoslari» o'quv qo'l Tosh_2019
7. Abdulla Qahhorov «Inson psixologiyasiga oid nazariyalar» qo'll Sam_2012
8. Alisher Usmonov «Psixologiyaning amaliy usullari» nash tosh_2017



9. Muhammad Ali “Shaxsiyat va psixologiya” o’quv qo’l nash Tosh_ 2015

10. Ravshanbek Hoshimov “Rivojlanish psixologiyasi” o’quv qo’l Sam_2005